Central Asian Research Journal of Natural and Exact Sciences
INTERNATIONAL SCIENTIFIC, APPLIED AND THEORETICAL JOURNAL
2026 / № 1(3)
SCIENCE FOR A SUSTAINABLE CENTRAL ASIA

USMONLILAR IMPERIYASINING HINDISTON BILAN ALOQALARI

Qarshiyev Fazliddin Olim o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti tarix yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
Do‘smahmatov Nodirbek Rustam o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ergashev Aliakbar Nurmuhammad o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada Usmonlilar imperiyasining Hindiston bilan siyosiy, harbiy, diniy va iqtisodiy aloqalari XVI asrdan XX asr boshigacha bo‘lgan davrda tahlil qilinadi. Usmonlilarning Portugaliya ekspansiyasiga qarshi Hind okeanidagi harakatlari, Gujarat sultonligi va Boburiylar bilan munosabatlari, Mysor hukmdori Tipu Sulton bilan aloqalari hamda xalifalik g‘oyasi atrofida shakllangan Hindiston musulmonlari bilan aloqalar ilmiy adabiyotlar asosida yoritiladi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, manbashunoslik va tarixshunoslik tanqidi usullaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: Usmonlilar imperiyasi, Hindiston, Boburiylar, Gujarat, Hind okeani, Portugaliya, Tipu Sulton, xalifalik, Xilofat harakati, diplomatik aloqalar.

Аннотация. В статье анализируются политические, военные, религиозные и экономические связи Османской империи с Индией с XVI до начала XX в. На основе научной литературы рассматриваются действия османов в Индийском океане против португальской экспансии, отношения с султанатом Гуджарат и Великими Моголами, контакты с правителем Майсура Типу Султаном, а также связи с индийскими мусульманами, сложившиеся вокруг идеи халифата. В исследовании использованы историко-сравнительный метод, источниковедческий анализ и историографическая критика.

Ключевые слова: Османская империя, Индия, Великие Моголы, Гуджарат,

Индийский океан, Португалия, Типу Султан, халифат, Хилафатское движение, дипломатические связи.

Abstract. The article analyses the political, military, religious and economic relations between the Ottoman Empire and India from the 16th century to the early 20th century. On the basis of scholarly literature, it examines Ottoman activity in the Indian Ocean against Portuguese expansion, relations with the Gujarat Sultanate and the Mughals, contacts with Tipu Sultan of Mysore, and the ties with Indian Muslims that took shape around the idea of the caliphate. The study applies the historical-comparative method, source criticism and historiographical analysis.

Keywords: Ottoman Empire, India, Mughals, Gujarat, Indian Ocean, Portugal, Tipu Sultan, caliphate, Khilafat movement, diplomatic relations.

Kirish

Usmonlilar imperiyasi (1299–1922) va Hindiston o‘rtasidagi aloqalar Hind okeani, Qizil dengiz, Fors ko‘rfazi hamda Markaziy Osiyo orqali o‘tgan quruqlik yo‘llari bilan bog‘liq bo‘lib, bir necha asrni qamrab oladi. Bu aloqalar turli bosqichlarda turlicha mazmun kasb etgan: XVI asrda Portugaliya ekspansiyasiga qarshi harbiy-diplomatik hamkorlik, Boburiylar bilan siyosiy va diniy munosabatlar, XVIII asrda Mysor hukmdorining yordam so‘rab murojaat qilishi, XIX–XX asrlarda esa xalifalik g‘oyasi atrofida shakllangan Hindiston musulmonlari bilan aloqalar shular jumlasidandir.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Usmonlilarning Hindiston bilan aloqalari imperiya tashqi siyosatining Hind okeani yo‘nalishini, musulmon dunyosidagi siyosiy va diniy aloqalar tizimini hamda G‘arbiy Yevropa mustamlakachiligiga qarshi turish tajribasini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu aloqalar Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo tarixini yagona tarixiy makon sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Mavzu tarixshunosligida N. R. Faruqiyning Boburiylar va Usmonlilar munosabatlariga bag‘ishlangan monografiyasi, S. Ozbaranning Usmonlilar–Portugaliya raqobatiga oid tadqiqotlari, J. Kasaleningning Usmonlilar «kashfiyotlar davri» haqidagi

asari, A. Ozjanning panislomizm va Hindiston musulmonlari haqidagi ishi hamda G. Minoltning Xilofat harakatiga bag‘ishlangan kitobi alohida o‘rin tutadi [1; 2; 3; 5; 6]. Shunga qaramay, Usmonlilar–Hindiston aloqalari ko‘pincha alohida mavzular doirasida o‘rganilgan bo‘lib, ularni yagona uzoq muddatli jarayon sifatida umumlashtirish zaruriyati saqlanib qolmoqda.

Maqolaning maqsadi — Usmonlilar imperiyasi va Hindiston o‘rtasidagi aloqalarning asosiy bosqichlari va yo‘nalishlarini ilmiy adabiyotlar asosida yoritish. Vazifalar sifatida Hind okeanidagi harbiy-diplomatik hamkorlikni, Boburiylar bilan munosabatlarni, savdo aloqalarini, XVIII asr voqealarini hamda xalifalik masalasi bilan bog‘liq aloqalarni tahlil qilish belgilandi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik va tarixshunoslik tanqidi usullaridan foydalanildi.

Asosiy qism

1. Aloqalarning tarixiy-geografik asoslari

Usmonlilar va Hindiston o‘rtasidagi aloqalarning asosi qadimdan Hindistonni Yaqin Sharq va O‘rta yer dengizi bilan bog‘lab turgan savdo yo‘llari edi. Hindistondan ziravorlar, matolar, qimmatbaho toshlar va boshqa mahsulotlar Fors ko‘rfazi va Qizil dengiz orqali Misr, Suriya va Anadoluga yetkazilgan. Usmonlilar Misr, Suriya va Hijozni egallagach (1516–1517), Hind okeani savdosining g‘arbiy uchlari ularning nazoratiga o‘tdi va imperiya bu savdo yo‘llarining xavfsizligi hamda daromadlarida bevosita manfaatdor bo‘lib qoldi [3; 4].

XV asr oxiri — XVI asr boshida Portugaliyaning Hind okeaniga kirib kelishi mintaqadagi kuchlar muvozanatini o‘zgartirdi. Vasko da Gamaning 1498-yildagi Hindistonga dengiz yo‘li ochilishi portugallarga Hind okeani savdosiga bevosita aralashish imkonini berdi. Portugaliya mustahkamlangan tayanch punktlar tarmog‘ini yaratib, Qizil dengiz va Fors ko‘rfazi savdosini nazorat qilishga intildi. Bu holat Usmonlilar, Misr Mamluklari va Hindiston musulmon hukmdorlarining umumiy manfaatlariga zid edi, shu sababli ular o‘rtasida harbiy-diplomatik hamkorlik zarurati paydo bo‘ldi [2; 4].

Bu hamkorlikning dastlabki urinishi Misr Mamluklari bilan bog‘liq edi. 1508-yilda Mamluklar floti Hindiston hukmdorlari bilan birgalikda Chaul yaqinida portugallar flotiga zarba berdi, biroq 1509-yilda Diu yaqinidagi dengiz jangida mag‘lubiyatga uchradi. Bu voqealar Hind okeanida portugallarning texnik va dengiz ustunligini ko‘rsatib, keyinchalik Usmonlilar uchun muhim saboq bo‘ldi. 1517-yilda Mamluklar sultonligi tugatilgach, Usmonlilar Qizil dengizdagi mudofaa vazifalarini va Hindiston musulmon hukmdorlari bilan aloqalarni o‘z zimmalariga oldilar [3; 4].

2. Usmonlilar va Gujarat sultonligi hamkorligi

Hindistonda Usmonlilar bilan eng yaqin aloqalar o‘rnatgan davlatlardan biri Gujarat sultonligi bo‘ldi. Portugaliya bosimi ostida qolgan Gujarat hukmdorlari Hind okeanidagi musulmon kuchlaridan yordam izlashga majbur bo‘ldilar. Dastlab bu yordam Misr Mamluklaridan so‘ralgan bo‘lsa, 1517-yildan keyin Usmonlilar Mamluklar merosxo‘ri sifatida shu siyosatni davom ettirdilar. Tadqiqotchilar Gujarat bilan aloqalarning harbiy-texnik jihatini, xususan, artilleriya va dengiz harbiy mutaxassislarining Gujaratga yuborilishini ta’kidlaydilar [2; 3].

1538-yilda Sulaymon I davrida Hadim Sulaymon Posho boshchiligidagi Usmonlilar flotining Hind okeaniga yurishi bu hamkorlikning eng muhim bosqichi bo‘ldi. Usmonlilar floti Suvaysdan yo‘lga chiqib, Aden orqali Gujaratdagi Diu qal’asi yaqiniga yetib keldi. Diu qamali natijasiz yakunlandi va flot orqaga qaytdi; bu muvaffaqiyatsizlik tadqiqotchilar tomonidan portugallarning dengizdagi ustunligi, Usmonlilarning mintaqadagi bazalari yetarli emasligi va Hindiston hukmdorlari bilan ittifoqning ishonchsizligi bilan izohlanadi [2; 3]. Shunga qaramay, yurish Usmonlilarning Hind okeanidagi siyosiy qiziqishlarini ko‘rsatib berdi va Qizil dengizda Aden hamda Yamanga nisbatan nazoratni kuchaytirdi.

Gujarat sultonligida Usmonlilar bilan bog‘liq shaxslarning xizmati ham diqqatga sazovor. Masalan, Usmonlilar kelib chiqishiga ega Rumiy Xon (Mustafo Rumiy) kabi harbiylar Gujarat qo‘shinida artilleriya va qal’a mudofaasi bo‘yicha muhim vazifalarni bajargani manbalarda qayd etiladi. Bu holat Usmonlilar harbiy texnologiyasi va

mutaxassislarining Hindistonga tarqalishida aloqalarning ahamiyatini ko‘rsatadi [3].

Usmonlilar yurishlari Hind okeanida bir qator tayanch nuqtalarni egallash bilan ham bog‘liq edi. Aden va Yaman hududlarining nazorat ostiga olinishi Qizil dengiz orqali Hindistonga boruvchi yo‘lni xavfsizroq qildi. Tadqiqotchilar bu siyosatni Usmonlilarning Hindistonga yaqin hududlarda doimiy harbiy hozirlikni saqlashga intilishi sifatida baholaydilar, biroq mintaqaning uzoqligi, ta’minot qiyinchiliklari va Fors ko‘rfazidagi muammolar bu intilishni to‘liq amalga oshirishga imkon bermagan [2; 4].

3. Piri Rais va Seydi Ali Rais yurishlari

XVI asr o‘rtalarida Usmonlilar Hind okeanida portugallarga qarshi faolroq harakat qilishga urindilar. 1552-yilda Piri Rais boshchiligidagi flot Suvaysdan chiqib Maskat shahrini egalladi, ammo Hormuzni ololmadi; yurish muvaffaqiyatsiz yakunlanib, Piri Rais keyinchalik qatl etildi. Shundan so‘ng Basradagi flotni Suvaysga olib borish Seydi Ali Raisga topshirildi. 1553–1554-yillardagi bu yurishda flot Hormuz yaqinida portugallar bilan jangga kirib, so‘ngra kuchli bo‘ronga duch keldi va Gujarat sohillariga borib to‘xtashga majbur bo‘ldi [2; 3].

Seydi Ali Rais Hindistondan Usmonlilar poytaxtiga quruqlik yo‘li orqali qaytdi. Uning bu safari «Miratul-mamolik» («Mamlakatlar ko‘zgusi») asarida bayon etilgan. Muallif Gujarat, Sind, Dehli orqali Afg‘oniston, Movarounnahr va Eron hududlari bo‘ylab yo‘l yurib, Hindistonda Humoyun sarayida bo‘lganini yozadi. Bu asar Usmonlilar elchisi nuqtai nazaridan Hindiston, Markaziy Osiyo va Eron siyosiy hayoti, shaharlari va hukmdorlari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Yurish harbiy jihatdan muvaffaqiyatsiz bo‘lsa-da, tarixshunoslikda u Usmonlilarning Hind okeani va Markaziy Osiyo makonidagi diplomatik ko‘rinishining muhim dalili sifatida baholanadi [3].

Usmonlilarning Hind okeanidagi faoliyati faqat Hindiston sohillari bilan cheklanmagan. Shu davrda Janubi-Sharqiy Osiyodagi Aceh sultonligi bilan ham aloqalar o‘rnatilgani haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lib, tadqiqotchilar bu aloqalarni Usmonlilarning Hind okeani bo‘ylab musulmon hukmdorlari bilan umumiy tarmoq

yaratishga intilishi sifatida izohlaydilar. Bu tarmoq doirasida Hindiston, jumladan Gujarat, markaziy o‘rinlardan birini egallagan [2; 3].

4. Boburiylar bilan siyosiy va diniy aloqalar

Boburiylar davlati va Usmonlilar munosabatlari bir necha yo‘nalishda rivojlandi. Birinchi yo‘nalish harbiy-texnik aloqalar bilan bog‘liq: Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonni zabt etish jarayonida Usmonlilar tajribasiga asoslangan artilleriya va o‘qotar qurollardan foydalandi. Uning qo‘shinida Ustod Ali Quli va Mustafo Rumiy kabi ustalarning xizmati manbalarda tilga olinadi. Bu holat Usmonlilar harbiy texnologiyasi ta’sirining Janubiy Osiyoga yetib kelganini ko‘rsatadi [1; 3].

Ikkinchi yo‘nalish diplomatik va diniy munosabatlar edi. N. R. Faruqiyning fikricha, Boburiylar va Usmonlilar aloqalari asosan elchilar almashinuvi, sovg‘alar yuborish va Makka hamda Madinadagi xayriya masalalarida namoyon bo‘lgan, ammo hech qachon izchil harbiy ittifoq darajasiga yetmagan [1]. Akbar va undan keyingi Boburiy hukmdorlari Hijozga moliyaviy yordam yuborishi, haj yo‘llarining xavfsizligi bilan qiziqishi bilan Usmonlilar obro‘sini hisobga olishga majbur edi, ayni paytda ular Usmonlilar xalifaligi oldida o‘z mustaqilligini ta’kidlab turardi.

Hijoz va haj masalasi Boburiy–Usmonli munosabatlarida alohida o‘rin tutgan. Makka va Madina Usmonlilar hukmronligi ostida bo‘lgani uchun Boburiylar xayriya mablag‘larini yuborishda Usmonlilar ma’muriyati bilan hamkorlik qilishga majbur bo‘lgan. XVI asr oxirida Akbar saroyi ayollarining haj safari va Hijozga yuborilgan katta xayriyalar bu aloqalarning ramziy ifodasi sifatida ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, xayriyalarning taqsimlanishi va Hijoz amaldorlarining xatti-harakatlari ba’zan ikki tomon o‘rtasida norozilik va tortishuvlarga sabab bo‘lgan [1].

Munosabatlar murakkabligining sababi shundaki, ikki davlat Safaviylar davlatiga nisbatan turlicha siyosat yuritgan. Usmonlilar Safaviylar bilan uzoq davom etgan harbiy qarama-qarshilikda bo‘lgan bir paytda, Boburiylar Safaviylar bilan ba’zan ittifoqchilik, ba’zan raqobat aloqalarini saqlab turdi. Shu bois Boburiy–Usmonli munosabatlari Eron omili bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, tadqiqotchilar buni Usmonlilar va Boburiylar

o‘rtasida chuqur harbiy ittifoq shakllanmaganining asosiy sabablaridan biri deb hisoblaydilar [1].

5. Savdo va iqtisodiy aloqalar

Usmonlilar–Hindiston aloqalarining muhim jihati savdo munosabatlari edi. Hindistonning Surat kabi portlari Qizil dengiz va Fors ko‘rfazi bilan bevosita bog‘langan bo‘lib, Hind matolari, ziravorlar va boshqa mahsulotlar Moxa, Jidda va Basra orqali Usmonlilar hududiga yetkazilgan. Aksincha, Usmonlilar hududidan Hindistonga kumush, mis, ba’zi hunarmandchilik mahsulotlari va ot yetkazib berilgan. Surat Hindistondagi musulmon hojilarning Makkaga yo‘l olishida asosiy port bo‘lgani sababli savdo va diniy aloqalar bir-birini to‘ldirgan [3; 4].

Portugaliya ekspansiyasi bu savdoga bevosita ta’sir qildi, ammo butunlay yo‘q qila olmadi. Tadqiqotchilar XVI asr o‘rtalaridan boshlab Qizil dengiz va Fors ko‘rfazi orqali ziravor savdosi qayta tiklanganini va Usmonlilar bu savdodan muhim bojxona daromadi olganini ta’kidlaydilar. Keyinchalik XVII asrda Hollandiya va Angliya Ost-Hind kompaniyalarining paydo bo‘lishi mintaqa savdosida yangi raqobat omilini yuzaga keltirdi. Shunday qilib, Usmonlilar iqtisodiy manfaatlari Hindiston bilan aloqalarda doimiy omil bo‘lib qoldi [3; 4].

Savdo mahsulotlari orasida Hindiston matolari alohida o‘rin tutgan. Hind paxta gazlamalari Usmonlilar bozorlarida katta talabga ega bo‘lib, Usmonlilar hududidan esa Hindistonga ot, kumush va boshqa tovarlar yuborilgan. XVII asrdan boshlab Qizil dengiz portlarida qahva savdosining rivojlanishi ham Hindiston bilan aloqalarga ta’sir ko‘rsatdi: Moxa orqali qahva Hindiston va Yaqin Sharq bozorlariga tarqaldi. Bu jarayonlar Usmonlilar–Hindiston aloqalarining nafaqat siyosiy, balki kundalik iqtisodiy va madaniy hayotga ham ta’sir qilganini ko‘rsatadi [3; 4].

6. XVIII asr: Mysor hukmdori Tipu Sulton va Usmonlilar

XVIII asrda Britaniya Ost-Hind kompaniyasi Hindistondagi ta’sirini kuchaytirgan sharoitda mahalliy hukmdorlar xorijiy ittifoqchilar izlashga majbur bo‘ldilar. Mysor hukmdori Tipu Sulton Britaniyaga qarshi kurashda Usmonlilar sultonidan yordam va

siyosiy qo‘llab-quvvatlashni so‘rab elchilar yubordi. Tarixiy adabiyotlarda Tipu Sultonning Istanbulga elchilik yuborishi uning musulmon dunyosidagi obro‘sini oshirish va o‘z hokimiyatiga xalifa nomidan qonuniylik berish istagi bilan izohlanadi [5].

Biroq Usmonlilar bu davrda o‘zlarining ichki va tashqi muammolari bilan band edi: Rossiya bilan urushlar, Balkan va Qora dengiz masalalari hamda Yevropa davlatlari bilan murakkab munosabatlar imperiyaning Hindistondagi ishlarga faol aralashish imkoniyatini cheklagan. Shu sababli Tipu Sulton bilan aloqalar asosan diplomatik muloqot va ramziy qo‘llab-quvvatlash darajasida qoldi. Shunga qaramay, bu aloqalar Usmonlilar xalifaligi g‘oyasining Hindiston musulmonlari orasida obro‘sini ko‘rsatuvchi dalil sifatida tarixshunoslikda e’tirof etiladi [5].

Tipu Sulton aloqalari davomida Britaniya Hindistondagi ta’sirini kengaytirib borgan. Mysor urushlari (1767–1799) Janubiy Hindistonda kuchlar muvozanatini kompaniya foydasiga o‘zgartirdi va 1799-yilda Tipu Sulton Srirangapatnam qal’asini himoya qilib halok bo‘ldi. Usmonlilar bu voqealarni kuzatib borgan bo‘lsa-da, ularning tashqi siyosiy imkoniyatlari cheklanganligi sababli Hindistondagi vaziyatga ta’sir ko‘rsata olmadilar. Bu holat Usmonlilarning XVIII asr oxiridagi zaiflashgan mavqeini va Hindistondagi siyosiy hodisalardan uzoqlashganini ifodalaydi [5].

7. XIX–XX asr boshlari: xalifalik g‘oyasi va Hindiston musulmonlari

XIX asrda Britaniya Hindistonda hukmronlikni mustahkamlagach, Usmonlilar va Hindiston o‘rtasidagi aloqalar davlatlararo siyosiy munosabatlardan ko‘ra ko‘proq Hindiston musulmonlari bilan diniy va ma’naviy aloqalar shaklini oldi. Sulton Abdulhamid II (1876–1909) davrida Usmonli sultonining xalifalik unvoniga alohida e’tibor qaratilib, bu unvon musulmon dunyosida, shu jumladan, Hindistonda, imperiyaning obro‘sini oshirish vositasi sifatida ishlatildi. A. Ozjanning fikricha, Hindiston musulmonlarining Usmonlilarga nisbatan hamdardligi panislomizm g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, Britaniya hukumati uchun ham alohida muammo yaratgan [5].

Hindiston musulmonlari Usmonlilarga moliyaviy va ma’naviy yordam

ko‘rsatdilar. 1877–1878-yillardagi Rus-Turk urushi davrida, shuningdek, XX asr boshida Hijoz temir yo‘li qurilishi uchun xayriyalar yig‘ilishi bunga misol bo‘ladi. 1912-yilda Balkan urushi paytida Hindistondan Usmonlilar armiyasiga tibbiy yordam missiyasi yuborilgani ham alohida ta’kidlanadi [5; 7]. Bunday harakatlar Hindiston musulmonlarining Usmonlilar saltanatini ona vatani emas, balki umumiy musulmon jamoasining ramziy markazi sifatida qabul qilganini ko‘rsatadi.

Birinchi jahon urushi (1914–1918) Hindiston musulmonlari uchun murakkab vaziyat yaratdi. Usmonlilar Markaziy davlatlar tomonida urushga kirgach, Britaniya Hindistonidan chaqirilgan musulmon askarlar Mesopotamiya va boshqa frontlarda Usmonlilarga qarshi jang qilishga majbur bo‘ldi. Britaniya hukumati musulmonlarning xalifa oldidagi sodiqligi urush davomida norozilik yoki qo‘zg‘olonga aylanishidan xavotirda edi. Shu sababli urush davomida Britaniya Hindistonidagi musulmon matbuoti va tashkilotlari kuzatuv ostida bo‘lib, xalifalikning holatiga oid masalalar siyosiy jihatdan sezgir mavzuga aylandi [5; 6].

Birinchi jahon urushidan keyin xalifalik masalasi Hindistonda ommaviy siyosiy harakatga aylandi. Muhammad Ali va Shavkat Ali kabi rahbarlar boshchiligidagi Xilofat harakati (1919–1924) Usmonlilar sultoni-xalifasining taqdiri va Usmonli hududlarining bo‘lib tashlanishiga qarshi kurashdi, bu harakat Hindiston milliy ozodlik harakati bilan ham bog‘landi [6]. G. Minoltning tadqiqotiga ko‘ra, Xilofat harakati diniy ramzlardan siyosiy safarbarlik vositasi sifatida foydalangan va Hindiston musulmonlarining siyosiy ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan [6]. 1924-yilda Turkiya Buyuk Millat Majlisi xalifalikni bekor qilgach, Xilofat harakati ma’nosini yo‘qotdi.

Jemil Aydin esa Usmonlilar va Hindiston musulmonlari o‘rtasidagi aloqalarni G‘arb mustamlakachiligiga qarshi turuvchi umumiy g‘oyaviy muhit — panislomizm va panosiyoviy fikrlar doirasida tahlil qiladi [7]. Uning fikricha, bu aloqalar faqat diniy birdamlik emas, balki mustamlaka tartibiga qarshi muqobil dunyo tartibi haqidagi tasavvurlarni ham o‘z ichiga olgan.

8. Tarixshunoslikdagi qarashlar va bahsli masalalar

Usmonlilar–Hindiston aloqalari tarixshunosligida bir necha yo‘nalish ajratib ko‘rsatiladi. Birinchi yo‘nalish Hind okeanidagi Usmonlilar–Portugaliya raqobatiga e’tibor qaratadi. S. Ozbaran va J. Kasale kabi tadqiqotchilar Usmonlilarning Hind okeanidagi faoliyatini mustaqil «kashfiyotlar davri» siyosati sifatida baholab, uni faqat mudofaa choralari bilan cheklab bo‘lmasligini ta’kidlaydilar [2; 3]. Ikkinchi yo‘nalish Boburiy–Usmonli diplomatik munosabatlarini o‘rganadi va N. R. Faruqiyning ishlari bu boradagi asosiy manba bo‘lib qolmoqda [1]. Uchinchi yo‘nalish esa XIX–XX asr boshlaridagi panislomizm va Xilofat harakati bilan bog‘liq bo‘lib, bu masalada A. Ozjan, G. Minolt va J. Aydin tadqiqotlari yetakchi o‘rinda turadi [5; 6; 7].

Bahsli masalalardan biri — Usmonlilarning Hind okeanidagi siyosati asosan iqtisodiy manfaatlarga yoki diniy-siyosiy g‘oyaga tayanganmi, degan savoldir. Bir guruh tadqiqotchilar savdo yo‘llarini nazorat qilish va bojxona daromadlarini asosiy omil deb hisoblasa, boshqalari musulmon dunyosini himoya qilish g‘oyasining ham ahamiyatini ta’kidlaydi. Ikkinchi bahsli masala xalifalikning Hindistondagi haqiqiy siyosiy ta’siriga oid: ayrim mualliflar bu ta’sirni sezilarli deb baholasa, boshqalari uni ramziy va ma’naviy xarakterga ega bo‘lgan, amaliy siyosiy yordamga aylanmagan omil sifatida ko‘rishga moyil [5; 6; 7].

Shuningdek, mavjud tadqiqotlarning bir qator cheklovlari ham bor. Ko‘p ishlar Usmonlilar yoki Britaniya arxivlari ma’lumotlariga tayanib, Hindiston tomonidagi fors tilidagi manbalardan kam foydalanadi. Markaziy Osiyo orqali o‘tgan aloqalar, jumladan, Seydi Ali Rais safari kabi misollar, O‘zbekiston tarixshunosligi nuqtai nazaridan alohida o‘rganilishga loyiq. Shu bois mavzuni chuqur o‘rganish uchun Usmonli, Boburiy va Markaziy Osiyo manbalarini qiyosiy tahlil qilish zarur.

Bundan tashqari, aloqalarni davrlashtirish masalasi ham muhim. Ko‘pchilik tadqiqotchilar mavzuni uch bosqichga ajratadi: birinchisi — XVI asrdagi harbiy-diplomatik va savdo hamkorligi davri; ikkinchisi — XVII–XVIII asrlardagi cheklangan diplomatik aloqalar davri; uchinchisi — XIX asr oxiri — XX asr boshidagi xalifalik va

panislomizm bilan bog‘liq ommaviy-ma’naviy aloqalar davri. Har bir bosqichda aloqalarning mazmuni, ishtirokchilari va vositalari o‘zgargan: dastlab hukmdorlar va harbiylar, keyinchalik elchilar va savdogarlar, so‘nggi bosqichda esa Hindiston musulmonlarining keng qatlamlari bu jarayonda ishtirok etgan [2; 5; 6].

Xulosa

Tahlil natijalari Usmonlilar imperiyasi va Hindiston o‘rtasidagi aloqalar bir necha asr davomida turli shakllarda rivojlanganini ko‘rsatdi. XVI asrda bu aloqalar asosan Hind okeanida Portugaliya ekspansiyasiga qarshi harbiy-diplomatik hamkorlik shaklida namoyon bo‘lgan: Gujarat sultonligi bilan aloqalar, 1538-yilgi Diu yurishi, Piri Rais va Seydi Ali Rais harakatlari bunga misoldir. Boburiylar bilan munosabatlar esa harbiy ittifoqqa emas, balki diplomatik, diniy va savdo aloqalariga asoslangan.

XVIII–XX asrlarda aloqalar mazmuni o‘zgarib, ular Britaniya mustamlakachiligi sharoitida xalifalik g‘oyasi atrofida shakllandi. Tipu Sultonning Usmonlilarga murojaati, Hindiston musulmonlarining Usmonlilarga moddiy va ma’naviy yordami va Xilofat harakati bu bosqichning asosiy ifodalaridir. Ushbu aloqalar Usmonlilarning Hindistondagi siyosiy ta’sirini cheklangan, ammo ramziy va diniy-madaniy ahamiyatini yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, mavzu bo‘yicha bahsli masalalar mavjud: Usmonlilarning Hind okeani siyosatining maqsadi (savdoni nazorat qilish yoki diniy-siyosiy xarakter), Boburiylar bilan ittifoq shakllanmaganining sabablari, xalifalikning Hindistondagi haqiqiy siyosiy ahamiyati. Umuman olganda, Usmonlilar–Hindiston aloqalari bir tomonlama emas, balki o‘zaro ta’sirga asoslangan jarayon bo‘lgan: Usmonlilar Hind okeanidagi manfaatlarini himoya qilish uchun Hindiston hukmdorlari bilan aloqa o‘rnatgan, Hindiston musulmonlari esa Usmonlilar sultonini o‘z diniy va siyosiy birdamligining ramzi sifatida qo‘llab-quvvatlagan. Kelgusi tadqiqotlarda Usmonli arxiv hujjatlari, Boburiylar davri fors tilidagi manbalar va Britaniya arxivlari ma’lumotlarini qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, Markaziy Osiyo orqali o‘tgan aloqalarni chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq.

Mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, Usmonlilar va Hindiston aloqalari tarixi Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo tarixini bir-biri bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Bu aloqalarni tahlil qilish musulmon dunyosidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarmoqlarning shakllanishi hamda ularning G‘arb mustamlakachiligiga munosabatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shu bois mavzu bo‘yicha keyingi tadqiqotlar, ayniqsa, o‘zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarni boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Farooqi N.R. Mughal–Ottoman Relations: A Study of Political & Diplomatic Relations between Mughal India and the Ottoman Empire, 1556–1748. Delhi: Idarah-i Adabiyat-i Delli, 1989.

2. Özbaran S. The Ottoman Response to European Expansion: Studies on Ottoman-Portuguese Relations in the Indian Ocean and Ottoman Administration in Iraq, Arabia and the Persian Gulf, 1534–1581. Istanbul: Isis Press, 1994.

3. Casale G. The Ottoman Age of Exploration. Oxford: Oxford University Press, 2010.

4. Brummett P. Ottoman Seapower and Levantine Diplomacy in the Age of Discovery. Albany: State University of New York Press, 1994.

5. Özcan A. Pan-Islamism: Indian Muslims, the Ottomans and Britain (1877–1924). Leiden: Brill, 1997.

6. Minault G. The Khilafat Movement: Religious Symbolism and Political Mobilization in India. New York: Columbia University Press, 1982.

7. Aydin C. The Politics of Anti-Westernism in Asia: Visions of World Order in Pan-Islamic and Pan-Asian Thought. New York: Columbia University Press, 2007.